



THE ROLE OF POLITICAL LEADERSHIP IN THE TRANSFORMATION OF DEMOCRATIC CHANGES (THE CASE OF UZBEKISTAN)

E. E. Kurbanov

PhD in Political Science

Head of the Department of "History and Art Studies"

Gulistan State Pedagogical Institute (GulDPI)

eldorgdu85@gmail.com

Gulistan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: politics, society, effective reforms, political space, political leader, democracy of dialogue, popular reception, image of a leader.

Received: 01.07.25

Accepted: 02.07.25

Published: 03.07.25

Abstract: This article analyzes political concepts related to the fact that in Uzbekistan, as in the world community, there have been major changes in the Democratic sphere, the political distance between the state and society has decreased, and the democratization of the state. In addition, reforms and dynamic changes have been carried out in our country, which have contributed to the growth of state confidence in citizens, which were undertaken as a result of the research that the article tried to highlight. In addition, historical events show that the role of the direct political leader in overcoming barriers between the government and citizens and in the results of reforms is great.

DEMOKRATIK O'ZGARISHLAR TRANSFORMASIYASIDA SIYOSIY LIDERNING O'RNI (O'ZBEKISTON TAJRIBASI MISOLIDA)

E. E. Kurbanov

"Tarix va san'atshunoslik" kafedrasi mudiri

siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

GulDPI

eldorgdu85@gmail.com

Guliston, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: siyosat, jamiyat, samarali islohotlar, siyosiy makon, siyosiy yetakchi, muloqot demokratiyasi, Xalq qabulxonasi, lider imidji.

Annotatsiya: Ushbu maqolada jahon hamjamiyatida bo'lgan kabi O'zbekistonda ham demokratik sohada katta o'zgarishlar sodir bo'lganligi, davlat va jamiyat o'rtasida

siyosiy masofa kamayib borishi, davlatning demokratlashuvi masalasidagi siyosiy konsepsiyalar tahlil qilingan. Qolaversa, yurtimizda davlatning fuqarolar orasida ishonchini ortishiga sabab bo'lgan islohotlar, dinamik o'zgarishlar tadqiqotlar natijasida maqolada yoritib berishga xarakat qilingan. Bundan tashqari, tarixiy o'zgarishlar shundan dalolat beradiki, hukumat va fuqarolar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etishda, islohotlar natijadorligida bevosita siyosiy yetakchining o'rni katta.

РОЛЬ ПОЛИТИЧЕСКОГО ЛИДЕРА В ТРАНСФОРМАЦИИ ДЕМОКРАТИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ (НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКИСТАНА)

Э. Э. Курбанов

Заведующий кафедрой «История и искусствоведение»

Гулистанский государственный педагогический институт (ГулГПИ)

Кандидат философских наук по политическим наукам (PhD)

eldorgdu85@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: политика, общество, эффективные реформы, политическое пространство, политический лидер, демократия диалога, народный прием, имидж лидера.

Аннотация: В данной статье анализируются политические концепции, связанные с тем, что в Узбекистане, как и в мировом сообществе, произошли большие изменения в Демократической сфере, уменьшилась политическая дистанция между государством и обществом, демократизация государства. Кроме того, в нашей стране были проведены реформы, динамические изменения, которые способствовали росту доверия государства к гражданам, которые были предприняты в результате исследований, которые пытались осветить в статье. Кроме того, исторические события свидетельствуют о том, что роль непосредственного политического лидера в преодолении барьеров между правительством и гражданами, в результатах реформ велика.

Kirish. Yashash, umrguzoranlik, ozodlik va mustaqillik uchun kurash huquqi insonning ajratib bo'lmaz huquqidir. Insonning erki uning o'z turmush hayotini ongli ravishda tanlab olishi hamdir. Shu sababli insonlar doimiy ravishda tabiatan erkinlikka, ijodkorlikka intilib yashashgan. Odamzod hech qachon o'zi yashagan va yashayotgan atrof muhit bilan aloqlarini yo'qotmagan. U o'z fikr-muloxazalari va orzularini nafaqat texnika vositalarini yaratishga, balqi o'z qalbi va tani takomillashtirishga ham yo'naltirgan. Shu sababli ham, davlat va jamiyat o'rtasidagi voqealarni

integrasiyalashishida inson bevosita va bilvosita vositachi xarakterini namoyon qilgan. Siyosiy - xuquqiy jarayonlarda erkin ishtirok etish va o'zi uchun xavfsiz muxitni yaratishga uringan. Siyosat va uning inson hayotida muhimligi xususida politolog T.Shabert quyidagicha talqin qilgan: "Odamlar ijodiy mavjudotlardir va siyosat odamlar ijodining mahsulidir. Odamlar siyosat bilan shug'ullanar ekanlar tinimsiz yaratib boradilar. Siyosat bu-sof ijod mahsulidir. Siyosat universal hodisadir"[1; 25-26]. Shu sababli ham davlat va jamiyat miqyosida siyosat omili mohiyati, uning institusional asoslari va g'oyalarda o'zgarishlarning ro'y berishi mamlakat hayotining barcha jabhalarida, birinchi navbatda jamiyat siyosiy tizimining faoliyat tartibida va siyosiy hokimiyatni amalga oshirish prinsiplarida jiddiy ravishdagi yangilanishlarga sabab bo'ladi. Bu holat demokratiyaning tektonik xolatga (harakatga kelishi), insonlarning o'zgarishlarga "ishonch" omili paydo bo'lishiga olib keladi. O'z o'rnida bu mezonlarni paydo bo'lishi siyosiy irodaning oshishiga olib keladi.

Metodlar. Rossiyalik olim I.Semenenko: "Siyosiy o'zgarishlar nafaqat siyosiy institutlarning siyosiy boshqaruviga daxl qiluvchi, shuningdek barcha boshqaruv amaliyotining transformasiyasini anglatadi.....siyosiy jarayonlarning yangi ishtirokchilari paydo bo'ladi, ularning siyosat sub'ekti sifatidagi sohalari kengayadi. Siyosatning mazmuni kengayadi, uning yangi konturlari paydo bo'ladi"[2; 12]. Buning natijasida esa, demokratik taraqqiyotni o'zining bosh maqsadi sifatida belgilab olgan mamlakatda demokratiyaning yangi manbalarini izlab topishi va siyosiy amaliyotga kiritish uchun yangi va yanada kengroq o'lchamdagi imkoniyatlar ochilib boradi. Sababi, "ko'pchilik olimlar g'oyasiga ko'ra, aslida har qanday rivojlanishi siyosiy o'zgarishlar zaminida ro'y beradi va yuksalish jarayonlarini anglatadi"[3; 322].

Yuksalish jarayoni o'z navbatida, demokratiya va demokratlashuvning eng muhim shartidir. Jamiyatda hayotida izchillik bilan ro'y beruvchi yuksalish hodisasi tufayligina fuqarolarning demokratlashuv mohiyatiga ega bo'lgan siyosiy o'zgarishlardagi ishtiroki uchun shart-sharoitlari ham kengayib boradi.

Siyosiy yuksalish hodisasining ro'y berishi o'z navbatida bir paytlar mashhur fransiyalik sosiologi va siyosatshunos olim P.Burde tomonidan asoslangan "sosial makon" va "siyosiy makon"ning yangilanishiga, rivojlanishining yangi manbalari bilan boyitilgan maydonning vujudga kelishiga sabab bo'ladi.O'z navbatida, "siyosiy makon" siyosiy hayotning yangi konstruksiyasini anglatib, jamiyat a'zolari bilan siyosiy institutlar o'rtasidagi shuningdek, individual va kollektiv sub'ektlar bilan siyosiy jarayonlar aktorlarining siyosiy hokimiyatni amalga oshirish va boshqaruvni tashqil qilish borasidagi hamkorlik aloqalarini bildiradi"[2; 74].

Buyuk Britaniyalik tadqiqotchi "Kerol Peytmen iborasi bilan aytilganda "demokratyaining demokratlashuvi" [2; 8] yangi va tom ma'nodagi yuqori o'lchamlarda amalga oshirilishining siyosiy g'oyalari jamiyatimiz bag'rining har bir qismidan mustahkam o'rin olish davri boshlandi.

Yangi davr rivojlanishining yangi bosqichini boshlanishi jamiyat hayotini keskin zamonaviylashtirish, demokratik taraqqiyot borasida yangi siyosiy g'oyalarni real asoslar bilan ilgari surish imkoniyatlarini ochib beradi. Shuning uchun ham siyosiy g'oya omili siyosiy o'zgarishlarni ro'y berishining eng muhim bunyodkor kuchi bo'lib xizmat qiladi.

Mustaqillikning dastlabki kunidan boshlab O'zbekiston ham o'zi uchun liberal xarakterdagi va konstitusion demokratiya turini tanladi. Bundan ko'zlangan maqsad va strategik vazifa jamiyat boshqaruvida insonlarning ishtirokini yuksaltirish, uning xuquq va erkinliklarini chinakam amalga oshirish, qonun ustuvorligini ta'minlash, ko'ppartiyaviylik va sivilizasiyalashgan davlat shakllantirishdir. Aynan bunday jarayonlarni yashab ketishi va taraqqiy etishi F.Zakariya e'tirofidek: "keng ko'lamli demokratlashuv uchun liberal xarakterdagi islohot bosqichi zarur bo'ladi"[4;148].

Natija. Siyosiy g'oya o'zining funksional asoslariga ko'ra, jamiyatning siyosiy, ijtimoiy asoslari, strategik maqsadlarini yangilashning mafkuraviy zaminlarini ifodalab beradi. Shuning uchun ilgari surilayotgan siyosiy g'oyaning mazmun-mohiyati yangi demokratik taraqqiyot manfaatlarini qanchalik darajada o'zida chuqur ifodalay olsa, demokratiyaning yangi pog'onaga ko'tarilishi uchun imkoniyatlar ko'lami ortib boradi.

Bugungi kunda jahon miqyosida yana o'zining ahamiyatini tinglab borayotgan liberal siyosiy g'oyalar turli mamlakatlar, jamiyatlarda demokratiyaning yangi jihatlarini ochilishida o'ziga xos asos bo'lib ham xizmat qilmoqda.

Siyosiy g'oyaning jamiyat demokratlashuvi va umuman milliy yuksalish manfaatlaridan kelib chiqib ilgari surilishida siyosiy lider, yetakchi omilining roli va ahamiyati beqiyos darajada kattadir. Tahlillar ko'rsatib turganidek, siyosiy yetakchi faoliyatida jamiyat rivojini ta'minlashning yangi va ilmiy asoslangan siyosiy yuksalish resurslarini ishga tushirib yuborilishi bilan mamlakat miqyosida yuzaga chiquvchi siyosiy o'zgarishlar jarayonlari jamiyat kompleks va konstruktiv rivojlanishning bosh manbaiga aylanadi. Chunki, "siyosiy lider yetakchi davlat, jamiyat hayotiga doimiy ravishda hal qiluvchi, ta'sir o'tkaza oluvchi shaxsdir.

G'arb olimi F.Fidler tomonidan siyosiy yetakchilikning samarali modeli ham asoslab berildi"[5;208-209].

Demak, siyosiy liderning davlat, jamiyat va uni taraqqiy ettirish borasidagi siyosiy g'oyalari hamda ularni bevosita amalga oshirish bo'yicha qabul qiladigan eng dolzarb siyosiy qarorlarining demokratiya qadriyatlari va qoidalari bilan uzviylashuvi mamlakatni rivojlanishi, siyosiy o'zgarishlarning faqat va faqat samara beruvchi demokratik yangilanishlar tomon yo'nalishini ta'min etib boradi.

Siyosiy yetakchining vazifasi ham o'z vakolati doirasida xalqni xoxish – istagi, manfaat va ehtiyojlarini qondirish yo'lida o'ziga xos faoliyat olib borish va lider imidjini shakllantirish bilan

bir qatorda ichki va tashqi maydonda davlat imidjini ham oshirishdir. Jamiyatlarni yuksaltirishning mazkur muhim qonuniyatlariga tayangan holda xulosa qilish mumkinki, bizning mamlakatimizda 2016-yilning dekabr oyidan boshlab shu davrga qadar ya'ni, 25 yil davomida mustaqil demokratiya rivojlanish bo'yicha erishilgan yutuqlar, siyosiy-ijtimoiy zaminlarga tayanilgan holda, ya'ni milliy tiklanish bosqichining muhim samaralari negizida yurtimiz miqyosidagi yangi, eng zamonaviy siyosiy g'oyalarni o'zida ifoda etuvchi siyosiy o'zgarishlar boshlandi. O'z navbatida, mazkur jarayonlar demokratik yangilanishlar, demokratiyaning g'oyaviy va institusional faktorlarini yuksak darajada rivojlantirish bo'yicha yanada kuchliroq imkoniyatlarni ochilishiga zamin yaratdi.

2016-yilning 4-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga yangi demokratik saylov o'tkazildi. Izchil demokratizm prinsiplariga tayanib o'tkazilgan mazkur saylov mamlakatimiz Konstitusiyasining 96 hamda 117-moddalariga, O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Saylovi to'g'risida"gi Qonunning 8-moddasi, shuningdek, Respublikamizning "Markaziy saylov komissiyasi to'g'risi"dagi Qonuning 5 hamda 9-moddalari normalariga monand ravishda o'tkazildi.

Ma'lumki, saylovlarda mamlakatimizda amalda bo'lgan to'rtta siyosiy patriyalar o'z nomzodlari bilan ishtirok etdilar [6]. Mazkur tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan, mamlakatimiz hayotiga buyuk siyosiy o'zgarishlarni olib kirilishiga asos solgan saylovlar ayni paytda "barcha fuqarolarni yana bir marta siyosiy va ijtimoiy sinovdan o'tkazdi. Ularning mamlakat taqdiriga, Vatan istiqboliga va har bir inson kelajagiga befarq emasligini, ovoz berish mas'uliyatini chuqur his etganligini ko'rsatdi... Prezidentlikka nomzod Sh.Mirziyoyev saylovchilar bilan uchrashuvda o'zining nomzodlik dasturini e'lon qildi. Ushbu dastur o'zining serqirraligi, ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab olganligi, xalqchil va samimiyligi, ichki va tashqi siyosatda esa qat'iy pozisiyaga ega ekanligi bilan yaqqol ko'zga tashlandi"[7;7-8].

Mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishishi tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining Qo'shma Majlisidagi mazkur nutqida kelgusida yangi demokratik O'zbekistonni barpo qilishning konseptual siyosiy g'oyalari, strategik yo'nalishlari nihoyatda ilmiy, real tarzda asoslandi. Demokratiya rivojlanishning izchil siyosiy dasturi ifodalandi va ayni paytda Prezidentimizning siyosiy yetakchi sifatidagi innovasion g'oyalari, xalq manfaatlari, inson ehtiyojlarini demokratiya prinsiplari, imkoniyatlariga asoslanib ta'minlashning davlat siyosatida ifodalanuvchi konkret yo'llari ko'rsatib berildi. Aytish lozimki, yurtboshimizning faoliyatida xalqona boshqaruv, xalqqa yaqinlik hissi, ularning kundalik tashvish va quvonchlariga sherik bo'lish tuyg'usi ustuvorlik qiladi. Bu davlat bilan jamiyat, davlat rahbari bilan fuqarolar maqsadlarining teranligiga, ular

orasidagi munosabatlarning uyg'unligiga olib keladiki, natijada O'zbekistonda yalpi barqarorlik va yuksak bunyodkorlik ruhiyatining chuqurlashishiga erishiladi"[7; 9].

Mamlakatimiz siyosiy yetakchisi tomonidan asoslangan mazkur konseptual g'oyalarda jamiyatimiz yangilash, demokratik islohotlarni ro'yobga chiqarishning milliy tajribalarimiz va ilg'or dunyo amaliyotiga asoslangan hamda yuksak samarali Konstruktiv siyosiy model namoyon bo'ldi. Bu bilan demokratik normalarni jamiyat bag'rida keng yoyishga yo'naltirilgan yo'nalishlarning kengayishi uchun keng qamrovli imkoniyatlar tizimi yaratildi.

Ya'ni, davlat bilan siyosat o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikda demokratiyaning doimiy ravishdagi impulsarining ta'siri kuchayib boradi. Natijada siyosatning mazmuni demokratiya qoidalari bilan boyib boradi. Demak demokratiya g'oyalarini o'zida toboro chuqurroq ifoda etadigan davlat va uning siyosati oxir-oqibatda demokratik siyosiy o'zgarishlarning kafolatli manbai bo'lib xizmat qiladi. Ushbu qoidalarining mamlakatimiz Prezidenti tomonidan asoslangan zamonaviy demokratik taraqqiyot va uni jamiyat hayotida ro'y berishining asosi bo'lgan davlat siyosati konseptual va institusional yangilash g'oyasi o'ta muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Demokratiyani nafaqat zamonaviy modelini taklif qilish balki uning ne'matlarini jamiyatning har bir jabhasiga etib borishga erishish yurtimizda zamonaviy davlat siyosatining yetakchi prinsipiga aylantirildi. "Iqtisodiy taraqqiyot demokratiyani bo'lishi mumkin qilib qo'ysa, siyosiy rahbariyat uni xaqiqatda mavjud qilib ko'yadi"[8; 94].

Ayni bir vaqtning o'zida mamlakatimiz rahbari tomonidan davlat va jamiyat faoliyatini tashkil qilishning, shuningdek, ijtimoiy munosabatlarni amalga oshirishning yangi demokratik xulq-atvor qoidalari taklif qilindi. Uning mohiyatini, demokratiya qoidalarini jamiyatga tadbqiq qilishda demokratik qonunlarning, bosh va yetakchi asos sifatida qabul qilish, amal qilish tashkil etdi.

Demokratiya bilan jamiyat ma'rifati hamda adolatli davlat siyosati bir-birlariga chambarchas bog'liq bo'lgani bois ham ushbu aloqadorlikni hamkorlik holatida namoyon bo'lishi uchun qonun ustuvorligi holati kuchli darajada zarur bo'ladi. Shu sababli ham jamiyatda barqarorlikni ta'minlashda va fuqarolarga nisbatan adolatsizlik va nohaqliklardan himoya qilishda qonun ustuvorligini ta'minlash rahbar shaxsining olib borayotgan islohotlari va o'rni muhimdir.

"O'zbekiston Respublikasi Prezidentining jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2016-yil 28-dekabrda qabul qilingan PF-4904-sonli Farmoni mamlakatimiz tarixida birinchi marotaba demokratiya qoidalarini kuchli darajada ishlashi, davlat va jamiyat o'rtasidagi aloqalar tizimini demokratiya prinsiplari asosida ishlashini ta'minlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. Mazkur farmonda belgilab qo'yilgan qoidalar asosida jamiyatimizda demokratiyaning eng muhim

sharti bo'lgan davlat va uning fuqarolari o'rtasidagi real "kommunikasiya tizimining" ishlay boshlashiga erishildi.

Chunki, farmonda belgilab qo'yilgan talabalar demokratiyaning eng dolzarb bo'lgan barcha tomonlarini o'z ichiga qamrab oldi. Jumladan, farmonda "Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonaga kelib tushgan, shuningdek tegishliliga ko'ra davlat organlari va xo'jalik boshqaruv organlariga yuborilgan murojaatlarni qabul qilish, qayta ishlash, ko'rib chiqish va ular bo'yicha Qarorlar qabul qilinishi ustidan tizimli monitoring va nazoratni amalga oshirish" [9; 6] qoidasi belgilab qo'yildi.

Mazkur farmonda o'z aksini topgan konseptual g'oyalar hamda amaliy chora-tadbirlar tizimini jamiyatimiz hayotiga izchil tadbiriq qilirna boshlashi bilan yurtimizda keng ko'lamli demokratik islohotlarning jadallashuviga, ayni paytda mamlakatimiz miqyosida demokratik siyosiy o'zgarishlarning ildamlashuviga asos solindi.

Davlat va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarni ochiq va ishonchli yo'lga qo'yishning nihoyatda kafolatli va samarali mexanizmi yaratildi. Xalq qabulxonalari nisbatan qisqa muddat ichida o'zining samarador ekanligini namoyish etdi. Ayni bir paytda fuqarolarning demokratik manfaatlarini qondirish borasida ancha to'planib qolgan muammolarni ham namoyon qilib berdi hamda ularni xalq qilishi mexanizmi, demokratiyaning muhim instituti, vositasi sifatida o'zini namoyon qildi.

Harakatlar strategiyasi asosida jamiyatimizda zamonaviy dunyo traqqiyotining muhim xususiyati bo'lgan "postmodern" davriga xos bo'lgan, ayni paytda mamlakatimiz ijtimoiy xususiyatlaridan kelib chiquvchi va XXI asrga talablariga mos bo'lgan rivojlanishning yangi eshiklari ochildi. Mamlakatimizda siyosiy o'zgarishlar, yangilanishlar jarayonlarini keng ko'lamli va jadal ravishda yuz berishida davlatimiz rahbarining xalqni birlashtiruvchi "birlashish-bog'lanish-yuksalish" yangi formulasini hayotga joriy etishi yurtimizni jadal taraqqiy etish strategiyasining asosiy tamoyili sifatida hayotga joriy etildi. Bundan natija esa, majburiy mehnatni barham berildi, fuqarolikdan mahrum bo'lgan yurtdoshlarimizga fuqarolikni berishning adolatli tizimi shakllantirildi, shuningdek, milliy valyutaning erkin konvertasiya qilish imkoniyatlari paydo bo'ldi. Odamlarda davlatga va uning siyosiy yetakchisiga ishonch paydo bo'lib, keng ko'lamli islohotlarda ko'tarinki kayfiyat bilan faol ishtiroki osha boshladi.

Xulosa va tavsiyalar. Demak, jamiyatda keng ko'lamli va zamonaviy demokratik islohotlarning amalga oshirilishi uchun bevosita mamlakat siyosiy tizimi va siyosiy hokimiyatni amalga oshirish prinsiplaridan jamiyatda demokratiya manfaatlarin va ehtiyojlariga yo'naltirilgan siyosiy o'zgarishlar jarayonlariga asos solinishi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Ushbu jarayonda mamlakat siyosiy yetakchisi tomonidan yangi demokratik siyosiy g'oyalarining konseptual va institusional asoslarini jamiyatga taklif qilishi xal qiluvchi strategik asos bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan mamlakatimizda yangi demokratik siyosiy o'zgarishlar, yangilanishlar borasidagi konstruktiv g'oyalar hamda unga monand ravishda yangi siyosiy islohotlar va davlat siyosatini amalga oshirishilishi natijasida jadal demokratik jarayonlarni ro'y berishi uchun nihoyatda yuqori darajadagi resurslar vujudga keltirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мелвил А., Алексеева Т. и др. Политология. М.: «МГИМО», 2008.
2. Семенов И., Лапкин В. С. и доктор политических наук в глобальном обзоре: теоретико-методологические проблемы анализа и прогнозирования. М.: НМЭМО, 2014.
3. Мелвил А., Алексеева Т. и др. Политология. М.: «МГИМО», 2008.
4. Полис, 1999. № 2.
5. Ачкасов В., Гуторов В. Политология. М.: Высшее образование, 2006.
6. Xalq so'zi, 2016 yil 6 dekabr. №241(6676)
7. Jo'raev N. Tamaddunga da'vat. T.: "Ta'lim nashriyoti" MChJ, 2018.
8. Qurbonov E.E. Jamiyatni demokratlashtirish va fukarolik jamiyatini shakllantirishning dolzarbligi masalalariga doir // O'zMu xabarlar. №1/3.2015.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlab tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risidagi Farmoni. T.: "Adolat", 2017.